

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SON LEKSEMALARINING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

Xo'jamova Mohinurbonu To'xtamurod qizi¹

¹*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Lingvistika o'zbek tili yo'naliishi 2-kurs magistranti*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 16.01.2025

Revised: 17.01.2025

Accepted: 18.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Lingvokulturologiya,
konsept, metefora,
assotsiatsiya,
frazeologizm.*

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi son leksemalarini raqamlashdan tashqari, uning madaniy vazifalari haqida lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiqot olib borildi. Tadqiqot uchun obyekt sifatida "uch" va "to'qqiz" sonlari tanlab olindi. Obyektlar tarixiy-qiyosiy metodlar asosida o'rGANildi. Sonlarning folklor namunalarida, maqollarda, urf-odatlarda ifodalananish o'rinnari haqida lingvistik tahlil o'tkazdik.

KIRISH. An'ana va qadriyatlar dunyoning barcha xalqlari uchun ahamiyatli va muhim marosimlardir. Ular orqali biz xalqlarning kelib chiqishi, tarixi haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin A.Jo'raboyev tadqiqotda xalqimizning xilma-xil ko'rinishga ega urf-odati mavjudligi va ularning tilimizdagi nomlari hamda ularni o'rganishning nazariy-amaliy ahamiyatini ko'rsatib o'tgan. Bundan tashqari, urf-odat, an'ana ifodalari bo'lgan etnografizmlar Sh.Nurullayeva, Y.Bobojonov kabi tadqiqotchilarning ishlarida formal tadqiq usullarida keng o'rganilgan. M.Qahhorova esa etnografizmlarni lison nutq musanniyati asosida sistemaviy tadqiq qilgan. Til va madaniyatning o'zaro aloqadorligiga doir masalalar Yevropada ilk bor Vilyem fon Gumbold tomonidan ko'rib chiqildi. U o'z davrida "Til – xalq g'oyalarining shunchaki ifodachisi emas, balki xalqning bir butun ma'naviy quvvatidir; tillarning turfa bo'lishi esa bitta narsaning turlicha nomlanishi bo'lmay, shu narsani turlicha tasavvur qilish, ko'rishdir. Til hamisha millatning o'ziga xosligini ifoda etadi" deb yozgan. Darhaqiqat, tillarning turli xil ekanligi, til egalarining dunyoqarashidagi farqlarni ham yuzaga keltirib chiqaradi.

Masalan, kartoshka konsepti madaniy o‘ziga xos konseptlardan biri hisoblanadi. Kartoshka ruslar uchun nochor ovqatlanish etaloni, buni *судеть на одной картошке* frazeologizmi misolida ham ko‘rish mumkini beloruslar uchun odatiy milliy taom, ikkinchi non, muhim ozuqa hisoblanadi. Tildagi bunday hodisalarni lingvokulturologiya tadqiq etadi. Lingvokulturologiya – til va madaniyat aloqadorligini tadqiq etadi. “Til madaniyat bilan bog‘langan, u madaniyatga yetib boradi, unda rivojlanadi va uni ifodalarydi”. Lingvokulturologiya etnolingvistika va sotsiolingvistika bilan chambarchas aloqadadir. Hatto V.N.Teliyaga ko‘ra, lingvokulturologiya etnolingvistikating tarkibiy qismidir. Biroq lingvokulturologiya ham, etnolingvistika ham o‘z mohiyatiga ko‘ra alohida,fanlardir. Bugungi lingvokulturologik tadqiqot davomida biz sonlarning faqat raqamlash funksiyasinigina o‘rganmasdan, balki raqamlashdan tashqari urf-odatlarimizda akslanishi ya’ni etnografizmlar tizimidagi funksiyalari haqida izlanishlar olib bordik, o‘rgandik, tadqiq etdik va fikrlarimizni misollar, manbalar orqali dalilladik. Tadqiqot uchun birlamchi obyekt sifatida “uch” va “to‘qqiz” sonlarini tanlab olindi. Tadqiqot davomida sonlarning urf-odat, marosim, maqol, folklor namunasi, xalqning mientaliteti, milliy xarakteri til vositasida voqelanishi, yuzaga chiqishi o‘rganildi.

Uch soni bilan uzviy bog‘liq etnografizm, mifologik afsona va rivoyatlarga folklorimiz boy. Xalqimizda uch soni bilan bog‘liq bo‘lgan etnografizmlar tadqiqiga to‘xtalamiz:

Uch oqshomi - Chaqaloq tug‘ilgandan uch kun o‘tgach, pishiriladigan turli xil taomlar va bo‘g‘irsoq qo‘ni-qo‘shnilarga tarqatilib, chaqaloqning sog‘lomligi va oilaning yangi a’zosi tug‘ilganidan xabar berishadi.

Uchi - Dafndan uch kundan keyin marhumning xotiri uchun qilinadigan xudoysi - osh berish. Shu kabi marosim jarayonlarida uch marosim nomini anglatishi bilan birga mana shu muddat davomida amalga oshirilish xususiyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri metafora asosida marosim nomiga ko‘chmoqda. Uch raqami bilan bog‘liq turli qarashlar dunyo xalqlari orasida mavjud. Turli xil fikrlar tahlilini ham uchratishimiz mumkin. Xususan, “***Tana-jon-ruh uchligi***” inson butunligi, “***tug‘ilish-ulg‘ayish-vafot etish uchligi***” hayotni, “***tabiat – jamiyat – inson***” borliqning uchta shaklini, nikoh o‘qishda ***uch marta*** “*rozmisiz*” so‘roviga “*Roziman*” javobi oilani yuzaga keltiradi. Qadimgi Misr va Yunoniston mifalogiyasida olamni boshqaruvchi ***uch kuch*** Osmon, Yer, Yerosti sultanatlari Xudolariga sig‘inishganlari haqida e’tiqodlar mavjud bo‘lganini yaxshi bilamiz. “Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda uch qavatli olam modeli”. Birinchi qavat – Ko‘k tangri (Osmon) yuqori olami. Qadimgi turkiylar bu olamni “Uza”, ya’ni “Yuqori” deb atashgan. Bu olamda Ko‘k

Tangri, uning yordamchisi Umay kabilar bilan birga, Moyto‘ra, Yapqara, Shaliyama, ob-havo boshqaruvchisi Nasigay kabi yordamchi ruhlari ham yashaganlar.

Ikkinci qavat – Muqaddas Yer-suv o‘rtaligi olami. Qadimgi turkiylar bu olamni “Ekin ara”, ya’ni, “ikkisining o‘rtasi-osmon va yerning orasi” deb atashgan. O‘rtaligi olamning bosh xudosi Muqaddas Yer-Suv bilan birgalikda, uning o‘n yettita yaxshi yordamchisi (ruhlari), suv, o‘rmon, tog‘ ruhlari va insonlar shu olamda yashaganlar.

Uchinchi qavat – Erlikxon hukmron bo‘lgan yer osti olami. Qadimgi turkiylar bu olamni “Asra”, ya’ni “Past, quyi” deb atashgan. Bu olamda Erlikxon uning to‘qqizta o‘g‘li – Qarash, Mattir, Shingay, Ko‘mirxon, Badishbiy, Yabash, Temurxon, Ucharxon, Kereyxon va ikki qizi – Kishey ona, Erka Sulton, tez ajal chaqiruvchi Bo‘rt kabi yovuzlik ruhlari istiqomat qilganlar. Uchchala olamdag‘i barcha hukmdor va ruhlari Ko‘k Tangriga topinganlar. [Jo‘raqo‘ziyev Nodirbek Imomqo‘ziyevich Fil.fan.bo‘y. PhD.avtofif. “Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda kosmogonogik mifologiya” – 2018.]

Bundan tashqari xalq og‘zaki ijodida ham uch raqami bilan bog‘liq birikmali holatlarni uchratamiz. Xususan, *uch og‘a-ini botirlar-u uch opa-singillar* obrazlari, *uch boshli ajdar, uchta qiyin shart, uch marta na’ra tortmoq, uch kecha-yu uch kunduz, uch qiz, uch bahodir* obrazlarini ham uchratamiz. Butun turkiy xalqlar madaniyatida “uch” konsepti bilan bo‘giliq tushunchalarini assotsiatsiyalanishini o‘rganar ekanmiz:

- a) Sanoq son;
- b) “Uchini bermoq” birikmasida esa matom marosimlaridan birini;
- c) Uch qavat olam;
- d) Oxirgi imkon, muammolarning ketishi;
- e) Uchburchak;
- f) 3- shaxs;
- g) uch kishilik jamoa.

Turkiy xalqlarda muqaddas to‘qqizlik. Har narsani to‘qquz qilmoq udumi – Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”ning muqaddimasinda aytib turur: Turk xalqining ichinda har narsani to‘qquz qilmoq. Ul to‘qquzni Mo‘g‘ulning to‘qquz xonining yuzundin olib turur va taqi kitobning avvalinda ham aytildi, xudoyi taolonning yaratkan nimarsalarining barchasin marta-marta yaratqan turur. [Abulg‘oziy Bahodirxon “Shajarayi turk”, 1992, 17-bet]

To‘qqiz o‘g‘iz qabilasining ittifoqining to‘qqiz qabiladan iborat ekanligi ham shundan bo‘lishi mumkin.

Hozirgi kunda ham muqaddas to‘qqizlik xalqimiz orasida saqlanib kelinmoqda. To‘qqiz ham sehrli sonlardan hisoblanadi. Qadimgi Xorazmda sovchilar To‘y marosimlarida “*To‘qqiz tovoq*”, “*To‘qqiz bichar*”, “*To‘qqiz to‘y*”, “*To‘qqiz yuborish*” onalar qizlariga yig‘ayotgan sepini ham ayrim qipchoq sheva vakillarida “*to‘qqiz*” deb atashadi. “To‘y marsosilarining takomillashuvi natijasida to‘qqiz raqami kuyovning kelinga atalgan maxsus sovg‘asi ma’nosida qo‘llanila boshlagan. O‘zbek, qozoq, tojiklarda Kaspiy bo‘yi turkmanlarida kelinning kiyim-kechak, ro‘zg‘or buyumlaridan iborat sepi ham “*to‘qqiz*” deb yuritilgan. Turkman etnografi A.Jikiyevning yozishicha, salir, ersari urug‘lari odatiga ko‘ra qiz tomonga beriladigan qalin miqdori, unga kiritiladigan mol va ashyolar sonidan qat’iy nazar dokuz- to‘qqiz deb yuritilgan”. [Кисляков Н. А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средний Азии и Казахстана, Л.:1969. С.106.]

Qadim zamonlardan beri davom etib kelayotgan to‘qqiz raqami bilan bog‘liq irimlarning paydo bo‘lishiga sabab nimada? V.Stasovning yozishicha, turkiy va forsiy qabilalarning ayrimlarida o‘tmishda o‘ziga xos sanoq usuli bo‘lgan ekan. Bu usulga ko‘ra narsa va hodisalarni biz amalda qo‘llaydigan raqamlar vositasida emas, balki to‘qqiztalab sanashgan ekan. Masalan, to‘qqizta buyumni jamlab turib “bir to‘qqiz” atamasi bilan atasharkan. Shu bois to‘y marosimlarida ham narsalarni to‘qqiz donalab hisoblash (to‘qqiz dasturxon, to‘qqiz tovoq kabi) an’anasi paydo bo‘lgan. To‘y va tantalarda dasturxonaga to‘qqiz xil taom tortish udumi faqatgina o‘zbeklargagina xos emas ekan. Ma’lum bo‘lishicha, qadimgi germanlar bayram dasturxonini to‘qqiz xil noz-u ne’matlar bilan bezasharkan. Demak, to‘qqizlik hisob-kitob usuli asosida yaratilgan an’ana va udumlar dunyoning ko‘pgina xalqlariga ma’lum ekan. [Бородин А. И. Число и мистика, Д.:1975, с. 121]

Bundan tashqari folklorimizda ertak, dostonlarimiz qahramonlari to‘qqiz oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soatda dunyoga kelish tasvirini ifodalashda foydalanamiz. G‘ayrioddiy suratda ulg‘aygan botir to‘qqiz kecha-kunduz yo‘l yurib, ilk qahramonlik ko‘rsatishganida endigina to‘qqiz yoshga kirgan bo‘ladi. To‘qqiz manzil, to‘qqiz kunlik, to‘qqiz oylik, to‘qqiz yillik, to‘qqiz chqirim yo‘l, to‘qqizkun yo‘lda adashmoq kabi iboralar asar qahramonlarining sarguzashtlarining muddati haqida aytilganda qo‘llaniladi. Shu kabi birikmalardan foydalinish ham bevosita tariximizga bog‘liq. Afsonaviy obrazlarning ayrim xususiyatlarini bo‘rttirib tasvirlashda ham to‘qqizliklar qollanilgan. Rustam-u doston bir o‘tirganda to‘qqiz qo‘yning go‘shtini yeb yeb tugatsa, Afsar dev to‘qqiz botmon tayog‘ini kiftiga qo‘yib yuradi. Avazxon bilan poyga chopishmioqqa hozirlanayotgan Bo‘tako‘z to‘qqiz to‘qali kamarini beliga bog‘lash tasvirlari uchraydi. Ko‘rinib turibdiki, muqaddas to‘qqizlik asrlar davomida xalqimiz etnonimida saqlanib kelmoqda. A.Borodin tadqiqotlari natijasida

to‘qqizning matematik funksiyalarida ilohiylik bor degan qarashlar noto‘g‘ri ekanligini isbotlab berdi.

Olimpiya o‘yinlari vatani Qadimgi Yunonistonda musobaqalarni to‘qqizta hakam boshqarib turgan. Antik davr miflarida san’at va fanning turli tarmoqlariga rahnamolik qilgan to‘qqiz homiy haqida hikoyatlar bo‘lgan. Yunon afsonalarida yovuzlik ramzi bo‘lgan Lerney iloni to‘qqiz boshli maxluq sifatida talqin qilingan.

Qadimgi yunonlar davlat va xo‘jalik ishlarini yuritishda ham to‘qqizlikka amal qilganlar. Hatto Yunon davlatini to‘qqiz oliv hukmdor boshqarib turgan. Tarixchi olim Geradotning “Tarix” kitobining ham to‘qqiz kitob shaklida yozilgani ham qadimiy an’analar bilan bog‘liq emasmikin?

Miloddan avvalgi VI asrga mansub Sharq astronomik hujjatlarida “Oy tangrisi Sinding qaytish muddati 27 kun, shu bilan vaqt hisobi o‘lchanadi”, - deb yozilgan.

Umuman olganda, to‘qqiz kunlik vaqt hisobi va to‘qqizlik sanoq sistemasi ajdodlarimizning bu raqamga e’tiqod qo‘yishlariga sabab bo‘lgan.

To‘qqiz tovoq - Kuyov va uni boshlab kirgan kuyovjo‘ralarga tortiladigan ziyofat. Kelin tomondan to‘qqizta tovoqda to‘qqiz xil taom keltiriladi.

To‘qqiz bichar - Nikoh oldidan kelinning kiyimliklarini berish.

To‘qqiz yubordi - Kelin tomonga kuyov tomonda to‘y xarajatlari uchun yuboriladigan narsalar ya’ni to‘y uchun kerakli oziq -ovqat mahsulotlari.

“To‘qqiz” konsepti bilan bo‘qliq tushunchalarni assotsiatsiyalanishini o‘rganar ekanmiz:

- Olti soni;
- To‘qqiz oylik tug‘riq davri;
- To‘qqiz raqamidagi avtobus yoki mashrutka.
- To‘qqiz qavatli bino kabi tushunchalar keladi. Sonlarning urf-odatlar bilan bog‘liqligi esa ma’no ko‘chishi vositasida yuzaga chiqqan. Ya’niki, sonlardagi man’no ko‘chishlar o‘sha son miqdoridagi muddat yoki miqdor asosida yuz bergenligini kuztishimiz mumkin. Maqollarda esa zamon, muddat, sanoq tushunchalarini ifodalab kelmoqda. Shuningdek, ma’no kuchayishini ham ifodalamoqda.

O‘zbek xalq maqollarida:

“Olarda hisobi to‘qqiz, berarda o‘ttiz”,

“To‘qqizida bo‘lmagan aql,

To‘qsonida bo‘lmas.”

“To‘ygan yerga to‘qqiz kun – ta’zim.”

“Og‘izda to‘ymagan, to‘qqizda to‘ymas.”

“O‘n oylik o‘zdirar to‘qqiz oylik to‘zdirar.”

“Uch kishi bir bo‘lsa, biri Xizr”,

“Bir ikki uch uchdan keyin puch”,

“Uch kishi bor joyda kuch bor”,

“Uch kishi bilgan sirni yuz kishi bilar”,

“Uch uchdan keyin puch”.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, sonlar faqat sanoq funksiyasining emas balki, madaniy urf-odatlarni ham ifodalashga xizmat qiladi. Bu jarayonda metafora usulida ma’no ko‘chishi yuzaga keladi. Raqamlash funksiyalaridan madaniy hodisalarni ifodalashga o‘tish jarayonidagi hodisalarni lingvokulturologiya madaniyat konseptida tadqiq etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulg‘oziy Bahodirxon “Shajarayi turk”. T.: Cho‘lpon.1992.
2. Mamatov A “Zamonaviy lingvistika” “Tafakkur avlod” – T.: 2020. 167 S.
3. Jo‘rayev M. “Sehrli raqamlar siri” – T.: 1991.
4. Jo‘raqo‘ziyev N. I. Fil.fan.bo‘y. PhD.avtolef. “Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda kosmogenogik mifologiya” – 2018.
5. O‘zbek xalq maqollari T.:2005.
6. Бородин А. И. Число и мистика , Д.:1975.
7. Кисляков Н. А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средний Азии и Казахстана, Л.:1969.